

SUN'IIY INTELEKTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va service instituti

Axborot texnologiyalar kafedrası PhD, dotsent

akramsuyarov@mail.ru

SARIYEV DILMUROD SHUHRAT O'GLI

Samarqand iqtisodiyot va service instituti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Anatatsiya: Maqolada onlayn videotasvirlarni tahrirlash vositalari va uslublari bugungi raqamli dunyoda juda muhim ahamiyatga ega. Yuqori sifatli videolarni yaratish imkoniyati har qachongidan ham muhimroq bo`lib qoldi va Adobe Premiere Pro, Final Cut Pro, Canva, WeVideo, Wondershare Filmora kabi zamonaviy video tahrirlash dasturlari foydalanuvchilarga yordam beradigan keng ko`lamli vositalar va imkoniyatlarni taklif etadi. Foydalanuvchilarga qo`shimcha dasturlar o`rnatmasdan turib, videolarni kesish, ovoz qo`shish, montaj qilish, turli xil effektlar qo`shish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Maqolada ushbu vositalarning funksional xususiyatlari hamda videolarni samarali qayta ishlashning asosiy usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalarida onlayn tahrirlash vositalaridan foydalanish jarayonida vaqtni tejashi, qulay interfeysga ega bo`lishi va foydalanuvchilarga ham mos kelishini ko`rsatadi.

Аннотация: В статье рассматриваются инструменты и методы онлайн-редактирования видео, которые имеют большое значение в современном цифровом мире. Возможность создавать видеоролики высокого качества стала важнее, чем когда-либо, и современные программы для редактирования видео, такие как Adobe Premiere Pro, Final Cut Pro, Canva, WeVideo и Wondershare Filmora, предлагают пользователям широкий набор инструментов и возможностей. Эти платформы позволяют обрезать видео, добавлять звук, монтировать ролики и применять различные эффекты без установки дополнительного ПО. В статье описаны функциональные особенности этих инструментов и основные методы эффективной

обработки видео. Результаты исследований показывают, что использование онлайн-редакторов экономит время, обладает удобным интерфейсом и подходит для многих пользователей.

Abstract: This article discusses online video editing tools and techniques, which play a crucial role in today`s digital world. The ability to create high-quality videos has become more important than ever, and modern video-editing programs such as Adobe Premiere Pro, Final Cut Pro, Canva, WeVideo, and Wondershare Filmora offer users a wide range of tools and capabilities. These platforms allow users to trim videos, add audio, assemble clips, and apply various effects without installing additional software. The article outlines the functional features of these tools and the main methods for efficient video processing. Research findings indicate that using online editing tools saves time, provides an intuitive interface, and is suitable for many users.

**Kalit so`zlar:** onlayn platformalar, video, videotasvir, Canva, tahrirlash, videomantaj, raqamli media, videomateriallar, effect va filtrlar, onlayn ta`lim.

Kirish:

Hozirgi kunda zamon juda tez rivojlanib bormoqda. XXI asrga kelib zamon shu qadar rivojlandiki, go`yo kashf qilinmagan yangiklar, yaratilmagan ixtirolar qolmagandek. XXI asni biz raqamli texnologiyalar asri deb aytsak mubolag`a bo`lmaydi. Bugungi kunda vizual kontent yaratish va uni qayta ishlash jarayonlari kundalik hayotimizning ajralmas qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Ta`limda, ijtimoiy tarmoqda biznes reklamalari hamda ommaviy axborot vositalarida sifatli video materiallariga bo`lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. An`anaviy dasturiy ta`minotdan farqli o`laroq onlayn video tahrirlash vositalari foydalanuvchilarga istalgan joyda va istalgan qurilmada professional darajadagi videoni yaratish imkonini bermoqda. Mazkur maqolada videotasvirlarni onlayn tarzda tahrirlash imkoniyatlari, eng mashhur va zamonaviy tahrirlash uslublari yoritilib berilgan.

Adabiyotlar sharhi:

Video tasvirlarni onlayn tahrirlash bo`yicha so`ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlar raqamli media vositalarining jadal rivojlanishi va ularning foydalanuvchilar hayotidagi ahamiyati ortib borayotganini ko`rsatadi. Xorij tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy

izlanishlarda onlayn video tahrirlash platformalari qulayligi, moslashuvchanligi va keng funksional imkoniyatlari bilan an'anaviy dasturiy ta'minotga nisbatan ustun ekanligi ta'kidlanadi. 2020-yili miller o'z tadqiqotlarida bulut texnologiyalariga asoslangan video tahrirlash platformalari foydalanuvchilar orasida keng rivojlandi. Yana marketing sohasidagi onlayn video tahrirlash vositalarining biznes uchun samaradorligini yoritadi. Yana bir chet el tadqiqotchilaridan biri Patel 2022-yili olib brogan tadqiqoti shuni ko'rsatdiki video kontentlarning brend darajasiga ommabobligini oshirish uchun uning rangi, animatsiya elementlari va qisqa videolarni tahrirlash usullari auditoriyaga ta'siri darajasini oshirishini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, video tasvirlarni onlayn tahrirlash vositalarini o'rganish jarayonida ularning funkcionalligi va qulaylik darajasi hamda turli xil sohalarda qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Zamonaviy onlayn platformalar videomantaj jarayonini ancha soddalashtirib, foydalanuvchilarga professional darajadagi natijalarni qisqa vaqt Ichida olish imkonini bermoqda. Bugungi kunda onlayn tahrirlash vositalari orasida eng ko'p qo'llaniladigan interfeyslardan biri Canva hisoblanadi. Canva dizaynga boy shablonlar bilan tezkor mantaj va subtitr qo'shish imkoniyatlari qulayligi bilan boshqa platformalardan ajralib turadi. O'zbekistonda raqamli texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlarda, media savodxonligining oshishi va onlayn ta'lim tizimining kengayishi videotasvirlarni onlayn tahrirlash vositalariga talabni sezilarli darajada o'sganligi yaqqol misol bo'ladi. Ta'lim sohasida o'qituvchilar tomonidan Kapwing va WeVideo kabi platformalardan foydalanib, dars jarayonlariga mo'ljallangan onlayn video darslar, taqdimotlar, animatsiyalar yaratilmoqda. Videodarsliklar yaratishning bir qancha usullari mavjud. Eng ko'p qo'llaniladigan usullari quyidagilardan iborat: videoni kesish va birlashtirish, rang sozlamalari va filtrlar qo'llash, matn va subtitrlarni joylashtirish, audio tahrirlash, animatsiya va grafik elementlar qo'shish, ekran yozuvlari bilan birlashtirish, shablonlar asosida videomantaj qilish kabi usullari mavjud. Tahlil natijalar shuni ko'rsatdiki, onlayn video tahrirlash vositalaridan foydalanish kontent yaratishning demakratuvlashishiga xizmat qilmoqda. Ushbu vositalar ta'lim, reklama, blog yuritish va media sohalarida videomateriallarni operativ tarzda tayyorlash imkonini beradi. Demak, onlayn tahrirlash

platformalari ko'p tarmoqli foydalanuvchilarga qulay, tejamkor va keng imkoniyatlarga ega zamonaviy media vositalari sifatida shakllandi.

Xulosa:

Onlayn videotasvir tahrirlash vositalari yosh avlodlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu texnologiyalar nafaqat o'qish va o'rganish jarayonlarini qiziqarli qiladi, balki bu texnologik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda video kontent yaratish yoshlarni dizayn va marketing sohalarini o'rganishga undaydi. Onlayn tahrirlash vositalari orqali ular o'z g'oyalarini tezkor, sifatli va samarali tarzda ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, texnologiyaga ortiqcha bog'lanish xavfini kamaytirish va vositalardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov, T. (2022). Raqamli media va video tahrirlash texnologiyalari. Toshkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti.
2. Usmonov, S. (2021). Multimedia va interaktiv ta'lim vositalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Karimov, R. (2020). Onlayn videotasvirlarni yaratish va tahrirlash: nazariya va amaliyot. Toshkent: "Innovatsion Ta'lim" nashriyoti.
4. Yo'ldoshev, A. (2023). Yosh avlod va raqamli kontent yaratish. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Axborot Texnologiyalari Markazi.
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi (2022). Raqamli ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha qo'llanma. Toshkent.
6. Smith, J. (2020). Online Video Editing Tools and Their Impact on Digital Media. London: Routledge.
7. Canva Help Center. (2024). How to Edit Videos Online with Canva. <https://www.canva.com/help>